

Yuldasheva F.F

Ilmiy rahbar:

O'zDJTU katta o'qituvchi

Ochilova Muxlisa Suyun qizi

O'zDJTU 2- bosqich talabasi

Annotatsiya: *Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni yechish imkonи tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi.*

Annotation: *The more educated our children are the faster the economic sectors based on high technologies will develop, the more social problems will be solved. Therefore, if I say that the threshold of the new Uzbekistan starts from the school, I think that all our people will support this idea.*

Аннотация: Чем образованнее будут наши дети, тем быстрее будут развиваться отрасли экономики, основанные на высоких технологиях, тем больше будет решаться социальных проблем. Поэтому, если я скажу, что порог нового Узбекистана начинается со школы, думаю, что весь народ поддержит эту идею.

Kalit so'zlar: *aspirantura, ordinatura, ad'yunktura, doktorantura, contingent, bakalavriat, magistratura, klassifikatsiya.*

Keywords: *Postgraduate studies, ordinance, adjunctura, doctorate, contingent, undergraduate and master, classification.*

Ключ слова: *Аспирантура, постановление, адъюнктура, докторантура, контингент, бакалавриат, магистр, классификация.*

Hozirgi kunda mamlakatimizda malakali kadrlar yetishmasligi ortib bormoqda. Bunga sabab, biz birinchi navbatda bog'cha va mакtab ta'lим tizimiga e'tibor qaratishimiz lozim. Uyni poydevori qanchalik mustahkam bo'lsa, qurayotgan uyimiz ham, shunchalik mustahkam va sifatli bo'lgani kabi, malakali kadrlarning ildizini qanchalik mustahkam qilib qursak, shunchalik ko'p malakali kadrlar tayyorlashimiz mumkin. Nafaqat maktab, universitet ta'lим tizimiga ham katta e'tibor qaratishimiz lozim. Negaki, yuqori malakali kadrlarni tayyorlab beradigan oliy dargoh bu, Universitetdir. O'quvchi yoshlarimiz maktab, akademik litsey va shuningdek kasb-hunar kollejlarida bilim olsa, universitetda esa aksincha, ular bilim olishmaydi, olgan bilimlarini mustahkamlab mutaxassis bo'lib yetib chiqishida katta rol o'ynaydi.

Hozirgi kunda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda yuqori malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratmoqda. Prezidentimiz Shavkat

Mirziyoyev aytganidek, “Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz” Shu sababli, yangi o’quv dargohlari ochilmoqda. Bundan tashqari, Talabalarni xorijiy mamlakatlarda o’qish va kasb egallashlariga keng yo’l ochib bermoqda. Kadrlar (frans. cadre- shaxsiy tarkib) korxona muassasa firma hissadorlik jamiyatlari, banklar, kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlarida malakali xodimlarning asosiy tarkibi hisoblanadi. O’zbekistonda mustaqillikka erishilgandan so’ng kadrlar tayyorlash O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997- yil 29- avgustda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi [1,12b] asosida amalga oshirilib, bir butun uzluksiz tizimda olib borilmoqda. Yoshlarni kadr sifatida tayyorlash bosqichiga tayyorgarlik umumiy o’rta ta’lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarida amalga oshiriladi. Kadrning asosiy kontingenti kasb-hunar kolleji bakalavriat va magistratura orqali tayyorlanadi. Yuqori ilmiy salohiyatli, malakali kadrlarni tayyorlash aspirantura, ordinatura, ad'yunktura, doktoranturada amalga oshiradi.

Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O’zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo’nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg’or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soh ava iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konseptsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda. Konseptsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta’lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo’nalishlarini aks ettiradi.

Malakali kadrlar tayyorlashdagi kamchiliklar va muammolar borgan sari ortib bormoqda. Maktabgacha ta’lim va tarbiya ahvoli qoniqarsizligicha qolmoqda. Bog’cha yoshidagi bolalarning 25 foizigina maktabgacha tarbiya muassasalariga qamrab olingan, xolos. Maktabgacha bolalar muassasalaridan va oiladan maktabga kelgan bolalarning tayyorgarlik darajasi o’rtasida sezilarli tafovut mavjud. Shuningdek, maktablarda va boshqa o’quv yurtlarida ta’lim jarayonining o’zidagi va o’qitish uslubiyatidagi har xil kamchiliklar oqibatida bilim berishda yuzaga kelgan nodemokratik hamda jamiyat uchun zararli muhit shunga olib keldiki, o’quvchilarda mustaqil fikrlash rivojlanmay qolyapti, oqilona hayotiy yechimlar qabul qilish uchun yetarli tayyorgarlik yo’q. 9-11-sinflarni tamomlagan yoshlar mustaqil hayotda o’z o’rnini aniqlay olmaydi.

Ta’lim sohasidagi bugungi kamchiliklarning bartaraf etilishi, xalqaro me’yor va qoidalarning tezroq qabul qilinishi hamda jahon standartlariga va milliy ta’lim klassifikatsiyasi standart va milliy kasblar klassifikatsiyasi standarti yaratilishi yangi O’zbekistonning xalqaro ta’lim hamjamiyatiga integratsiyalashuviga va malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga olib keladi. [2,28b] Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo’lgan yo’nalishlar bo’yicha faoliyatni

amalga oshirish uchun qo'shimcha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellectual, ma'naviy-axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yeti yoshgacha bo'lган bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi. Jumladan, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, umumta'lim maktablari faoliyatini yaxshilash, oliy ta'lim tizimini dumyo standartlari darajasiga olib chiqish, ularni xalqaro mingtalik reytingiga kiritish, ayniqsa, o'quv yurtlariga qabul qilishda ob'yektiv va adolatli tizimni o'rnatish, nufuzli chet el universitetlari filiallarini ochish kabi ko'plab amaliy ishlar bajarilmoqda.[3,18b]

Shunday qilib, malakali kadrlar tayyorlash uchun biz birinchi navbatda yoshlarga katta e'tibor beraylik. Ya'ni hozirgi kunda texnologiyalar rivojlangan davrda ko'pchilik yoshlar e'tiborsizlik tufayli ilmga qiziqish pasayib ijtimoiy tarmoqqa qiziqishlar kuchayib bormoqda. Ya'ni bunga sabab kattalarning e'tiborsizligi hamda ular ham farzandlari yonida telefon bilan band bo'lishlaridir. Xalqimizda shunday maqol borki, "Qush uyasida ko'rganini qiladi", deb bejizga aytilmagan. Siz qanchalik farzandingiz yonida kitob mutolaa qilsangiz hamda qanchalik ko'p ilm bilan mashg'ul bo'lsangiz, farzandingiz ham siz kabi bo'lishga harakat qiladi. Shuning uchun biz yoshi kattalar farzandlarimizga o'rnak bo'lishimiz, hamda ularning o'qishi bilan doim e'tiborda bo'lib, ular bilan birgalikda dars qilishimiz lozim. Demak, biz jamiyatning bo'lagi bo'lmish oilada ilmlilikni rivojlantirishimiz lozim.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zME. Birinchi jild. T., 2000-yil, - 12-bet.
2. Shamsiyev .A. Ta'lim islohotlari uchun xalqaro standartlar zarur // J. "Til va adabiyot ta'limi", 2021, 3-son. – T., 2021. – 28-b.
3. Turg'unov .S. Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim islohotlari // J. "Sharq", 2019, 7-son. – T., 2019. -18-b.
4. Internet resources.